

## BUDDAVIYLIK DININING ÒRTA OSIYOGA KIRIB KELISHI VA RIVOJLANISHI

**Xudoyberganov Sabridin**

*Termiz davlat pedagogika instituti tarix fakulteti tarix va uning  
òqitish metodikasi yònalishi 1-kurs talabasi*

### QORATEPA YODGORLIGIDA BUDDAVIYLIKNING NAMOYON BÓLISHI.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buddaviylik dinining Òrta Osiyoga kirib kelishi va rivojlanishi. Keyingi taraqqiy etishi uchun asos bòlgan omillar. Qoratepa yodgorligida buddaviylikni keng namoyon bólishi va òrganilishi, ilmiy tadqiqotlar, ekspeditsiyalar, manbalar haqida umumiy muhokama qilinadi.

**Kalit sózlar:** Buddaviylik dini, Qoratepa yodgorligi, òrganilish tarixi, ilmiy tadqiqotlar, ekspeditsiyalar, manbalar, topilmalar va surxon vohasi

### KIRISH:

Buddaviylik dini miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda paydo bòladi. Uning asoschisi 20 yoshli Siddxartxa (Siddhartha) Gautama hisoblanadi. Dastlab buddaviylik dini xudosizlar dini edi. Keyinchalik Buddaga nisbatan munosabat òzgaradi va unga e'tiqod qila boshlashadi. Buddaviylikning keyingi rivojlanishida Òrta Osiyoning òrni benihoyat katta hisoblanadi. Ayniqsa Kushon podsholigi davrida buddaviylik dini rivojlanib òzining eng taraqqiyot chòqqisiga chiqadi. Buddaviylik e'tiqodi yirik davlatlar hukmdorlarining homiyligi ostida bòladi. Kushon podsholari homiyligi ostida buddaviylik dini Xitoy, Tibet, Mongoliya va Yaponiyaga tarqaladi. Podsho Kanishka I hukmronligi davrida Panjob òlkasi (Shimoliy Hindiston) hududlari egallagandan sòng buddaviylik dini Òrta Osiyoga kirib kela boshladi. Podsho Kanishka I òzi ham buddaviylik dinini qabul qiladi va davlat dini deb e'lon qiladi. Shundan sòng buddaviylik dini Òrta Osiyoga tarqalib keng miqyosda rivojlana boshlaydi. Ushbu davrda juda kòp buddaviylik ibodotxonalarining qurilishi natijasida dinning Òrta Osiyo hududiga keng miqyosda yoyilishiga olib kelganligini kòrsatadi. Kòp tadqiqotlar va ilmiy ekspeditsiyalar natijasida bu davrda qurilgan buddaviylik ibodotxonalari Surxon vohasidan topib òrganiladi. Bularga yorqin misol qilib Qoratepa buddaviylik ibodotxonasini kòrsatish mumkin.

Qoratepa-òziga xos tarzda qurilgan buddaviylik ibodotxonasi hisoblanadi. Milodiy I asrda Eski Termizning shimoli-sharqiy qismida 3 ta tabiiy tepalik ustida qurilgan. Ummumiy maydoni 8 gektarni tashkil qiladi. Yodgorlik 3 qismga bòlinadi. Har bir tepalik 3 tadan 5 tagacha rohib yashashi uchun mòljallangan kòp sonli viharalar barpo etilgan. Har bir vihara kvadrat maydon shaklda qurilgan bòlib, uning markazida stupa joylashgan. Qoratepa stupalari buddizmga xos inshoot bòlib, u hamma buddaviylik dini tarqalgan mamlakatlarda uchraydi. Bunday stupalar asosan bir xil uslubda qurilgan. Stupalarning asosi tórtburchak bòlib, bir necha metr balandlikka kòtarilgan bòladi. Balandlik ustiga esa silindirsimon inshoot solingan. Uning balandligi bir necha metrni tashkil qiladi. Uning usti gumbazsimon qilib

ishlangan va unga yoʻgʻochdan tuʻgʻ ornatanlar. Bu tuʻgʻ toshdan yasalgan bir nechta soyabon ornatilgan. Bunday soyabon buddistlarda „Chatra“ deb atalgan. Buddistlarning hisoblashicha, chatra muqaddas daraxtning ramzi boʻlib, mazkur daraxt soyasida Budda oʻz diniy nazariyasining asoslarini ishlab chiqqan ekan. Viharalarning gʻor qismlari 2 xil tuzilishiga ega hisoblanadi.

Birinchisi tepalikka chuqur kirib boradigan oddiy gʻorlar boʻlsa, ikkinchisi reja asosida qurilgan yopiq kvadrat shaklini eslatuvchi yʻlaklar hamda ularning markazida joylashtirilgan kichik hujra hisoblanadi. Janubiy qismida 15 tadan ziyod gʻor majmuasi qurilgan. Gʻor ibodotxonalarini qurish dastlab hindlardan oʻzlashtirilgan, keyinchalik qurilganlarini rejalashda baqtriyaliklarning meʼmoriy usullaridan foydalanilgan. Gʻarbiy qismida esa 5 ga yaqin uncha hashamatli boʻlmagan ibodotxonalar qurilgan hisoblanadi. Shimoliy tepalikning sharqiy qismi yer yuzasida joylashgan monumental majmua egallagan. Qoratepada yer usti va yerostiga qurilgan inshootlar bir-birlari bilan uzviy bogʻlangan. Majmuaning gʻarbiy qismida yerostiga joylashgan ibodotxona bilan yer ustini bogʻlovchi 2 ta eshik joylashgan. Pastki xonalarga zinapoyalar orqali tushilgan. Qazishmalar paytida Qoratepadan Kushon podsholigi davriga oid juda koʻp sopol idishlar, mis chaqalar, kòzalar va tangalar topilgan. Dastlab 1926-1928-yillarda Moskvadagi Sharq xalqlari madaniyati davlati muzeyi ekspeditsiyasi tadqiqot olib borgan, keyinchalik 1928-yilda A.S. Strelkov tomonidan oʻrganilgan. 1937-yilda M.Ye. Masson va Ye.G. Pchelina ham tadqiqot olib borgan. Undan keyin 1960-61-yillarda B.Ya. Staviskiy boshchiligida Moskvadagi Sharq taʼmirlash instituti, Sharqshunoslik va Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajining birlashgan ekspeditsiyasi tadqiqotlar olib boradilar va qazishma ishlari ham tashkillashtiradi. Bu ekspeditsiya B.Ya. Staviskiy boshchiligida 33 yildan ortiq davr mobaynida amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar natijasida Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindiston xalqlari madaniyati, madaniy aloqalari, shuningdek buddaviylik dinining bu oʻlkaga tarqalishidan darak beruvchi koʻplab ashyoviy dalillar topiladi. Xususan 1963-1964-yillardagi qazish ishlari majmuaning qadimiy hovlisini tòldiruvchi qatlamlarning ilgari oʻtkazilgan statigrafik kuzatishlarini tasdiqladi. Hovlining gʻarbiy devori butunlay tepalikning qumtosh qoyasidan oʻyilgan boʻlib, bir necha qatlamli loy gips bilan qoplangan. 1963-1964-yillarda olib borilgan qazishmalarda XI asrga oid oʻrta asr loydan yasalgan idishlar boʻlaklari topilgan. Qoratepadan 150 dan ortiq yozuvlar topib oʻrganiladi. Ular orasida 70 dan ortiq sopol idishlarga bitilgan hind tilidagi kxaroshtiy (xaroshthi) va braxma (brahmi) yozuvlari ham topilgan hisoblanadi. Hind tilidagi yozuvlarni oʻrganishni T.V. Grek tomonidan (60-yillar topilmalarini) muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Yozuvlarni alohida alohida tarjima qilishni taklif qiladi va qismlarga boʻlib oʻrganadi. Kuzatishlar natijasida yozuvlar milodiy 1-3 asrlarga tegishli ekanligini aniqlaydi. Majmuaning shimoliy va gʻarbiy qismidagi ayvonning devorlari qizil rangda oddiygina rasmlar bilan boʻyalgan, janubiy majmuaning devorlari turli rasmlar bilan bezatilgan. Rasmlar majmuaning oʻrtasidagi eshikning ikki tomoniga chizilgan. Foydalanilgan boʻyoqlar rangi kishini hayratga soladi. Har xil rangdagi qizil, qora, jigarrang va oq boʻyoqlar tomoshabinga oʻzgacha zavq bagʻishlaydi. Shunisi

diqqatga sazovorki, bizning mintaqada "ramka" ichiga joylashtirilgan devoriy suratlar shu choqqacha ma'lum emas edi. Bu borada Qoratepa suratlari birinchi namunadir. Qoratepa bitiklarida rohiblardan Buddashir, Buddxamitra va Jivandan ismlari ham eslatib o'tilgan. Xususan bu yerda ibodotxona qurilishiga mablag' ajratgan va homiylik qilgan aslzoda erkak, ayollarning rasmi chizilgan. Kiraverishdagi eshikning yuqorisida Buddani va ruhoniylarni tasviri chizilgan. Qoratepadan ko'plab budda haykallari topilgan. Qoratepa ibodotxonasi qurilishi Hindistondagi buddaviylik ibodotxonalaridan ajralib turadi. Buddaning o'zi ham bu yerda o'ziga xos tasvirlangan.

Ma'lumki, Buddaning uchta o'ziga xos ajratish belgilari bo'lgan: peshonasida do'g, boshining ortasida do'nglik va qulo'gining solincho'gi uzun bo'lgan. Qoratepada tasvirlangan Buddaning esa, bunday ajratish belgilaridan tashqari, atrofi „nimb“ ya'ni (lotincha nimbus so'zidan olingan „bulut“ ma'nosini bildiradi) va alanga bilan o'ralgan ko'rinishida tasvirlangan. Bundan tashqari Hindistonda tasvirlangan Buddaning haykali yarimyalon'och holda tasvirlangan bo'lib, Qoratepada topilgan haykalda esa ustiga kiyim bilan tasvirlangan, bu o'sha davrda O'rta Osiyoga mos ko'rinishda talqin etilgan holda yasalgan hisoblanadi. Qoratepada ta'lim olgan ruhoniylar hatto, Xitoyga borib mudarrislik qilganligi manbalarda uchraydi. Xitoy manbalarida mudarrislik qilganlarni ismlari sanab o'tilgan ekan. Demak bu shuni ko'rsatadiki, aynan shu davrda O'rta Osiyo buddaviylik dinining asosiy markaziga aylanib boshqa hududlarga tarqalishi uchun ko'prik vazifasini o'taganligini bildiradi. Qoratepadan topilgan arxeologik, antropologik va numizmatik ashyolar ushbu ibodotxona haqidagi fikrlarni ancha boyitadi. 1937, 1961 va 1962-yillardagi tadqiqotlar natijasida Qoratepani monastir ekanligini aniqlashadi.

1998-yilda Yapon arxeologi va professori Kato Kyudzo O'zbekiston Respublikasi Arxeologiya instituti direktori Sh. Pidaev va shu institut dotsenti T. Annayev bilan birgalikda Qoratepadagi budda ibodotxonalarini o'rganish bo'yicha o'zbek-yapon qo'shma ekspeditsiyasi tashkil etilib, hozirga qadar faoliyat ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar natijasida antik davrda Surxon vohasida ro'y bergan tarixiy madaniy jarayonlar aniqlanib, fanga tatbiq etilmoqda. Bunga misol qilib Qoratepadan topilgan devoriy suratlarni ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu devoriy suratlarni milodiy 2-3 asrlarga taalluqli, deyish mumkin. Buni o'rganish davomida chaqa tangalar ham topib o'rganiladi. Qoratepa milodiy 3-asr oxiriga kelib vayron etiladi. Bunga Eron sostoniyalarning Kushon davlatiga harbiy yurishlari sabab bo'lishi mumkin. Milodiy IV asrdayoq Qoratepadagi ko'plab tashlandiq xonalar va go'rlar ibodotxonalaridan qabr sifatida foydalanilgan, song kirish joylari xom gisht bilan urib yuborilgan. Eng dastlabki qabrlar yonida kushon-sosoniy tipidagi tangalar, Peroz tangalari va unga taqlidan zarb qilingan tangalar uchraydi. Keyingi qabrlarda milodiy 5-6 asrlardagi Termiz hukmdorlari zarb qildirgan tangalar topilgan. Qoratepada tadqiqotlar bizga Buddaviylik dini bilan bog'liq bo'lgan me'morchilik inshootlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, u Buddaviylik dinining O'rta Osiyoda, xususan Baqtriyada tarqalish yo'llari, buddizm go'yolari bilan su'gorilgan san'at, baqtriya tili, yozuvlari haqida fikr yuritishga imkoniyat yaratdi.

### XULOSA:

Surxondaryo-Ózbekistonning eng janubiy mintaqasi, 1 asrga yaqin vaqt davomida dunyoning kòplab arxeologlari va sayyohlarini òziga jalb qilib kelmoqda.Òzining 2500 yiligini nishonlagan kòhna Termiz shahri qadimiy va tarixiy obidalarga boy hisoblanadi.

Baqtriya òlkasining tarixi faqatgina bir mamlakat yoki xalqning tarixi bòlmay,balki dunyo tarixining ajralmas bir qismidir.Uning madaniyati jahon madaniyatining shakllanishiga katta hissa qòshib,insoniyat tarixida òchmas iz qoldirdi.

Buddaviylik dini miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda paydo bòladi.Buddaviylik dini Órta Osiyo hududiga Kushon podsholigi davrida kirib keladi.1927-yilda qadimiy Termizda buddaviylikka oid noyob yodgorliklar mavjudligi aniqlanadi.Bularga yorqin misol qilib,Qoratepa buddaviylik ibodatxonasini kòrsatish mumkin.Umumiy maydoni 8 gektarni tashkil qilgan yodgorlik, 3 ta tabiiy tepalik ustida qurilgan.Eski Termizning shimoli-sharqiy qismida joylashgan.Dastlab 1926-1928-yillarda Moskvadagi Sharq xalqlari madaniyati davlati muzeyi ekspeditsiyasi tadqiqot olib borgan.1937-yilda M.Ye.Masson va Ye.G.Pchelina tekshirgan.1960-yillarda arxeolog B.Ya.Staviskiy qazish ishlari olib borgan.1998-yilda Ózbek-yapon qòshma ekspeditsiyasi Kato Kyudzo,Shokir Pidaev va Tòxtash Annayev tadqiqot olib borgan.

Qoratepadagi tadqiqotlar bizga Buddaviylik dini bilan boğliq bòlgan me'morchilik inshootlari tòğrisida qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay,u dinning Órta Osiyoda,Baqtriyada tarqalish yòllari,buddaviylik gòyalari bilan suğorilgan san'at,baqtriya tili,yozuvlari haqida fikr yuritishga imkoniyat yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Буддийские памятники Кара-тепе старом Термезе-Б.Я.Ставиского Москва 1982
- 2.Sirli kushonlar saltanati-Shokir Pidaev Toshkent 1990
- 3.Буддийские пещеры Кара-тепе в старом Термезе-Б.Я.Ставиского Москва 1969
- 4.Индийская эпиграфика из Кара-тепе в старом Термезе-В.В.Вертоградова Москва 1995
- 5.Поселения кушанского времени себерной Бактрии-Шокир Пидаетв Ташкент 1978
- 6.www.meros.uz sayti